



ZULFIYA ISROILOVA IJODIDA METONIMIYA UNSURLARI

Yusupova Gulchexra Alisher qizi

To'rtko'l tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
gulchehraelisherovna@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15179543>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- Aprel 2025 yil
Ma'qullandi: 05- Aprel 2025 yil
Nashr qilindi: 09- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

Ma'no ko'chishi, metonimiya, lirika, aloqadorlik, shaxs oti, o'rin-joy oti

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek tilida keng uchraydigan ma'no ko'chish turlaridan biri – metonimiyaning badiiy adabiyotda, xususan, shoira Zulfiya Isroilova ijodida keng uchraydigan, metonimiyaning tilshunoslik hamda badiiy adabiyotdagi vazifasi haqida so'z yuritiladi. Metonimiyaning hosil bo'lish usullari tahlil qilinib, Zulfiyaxonim ijod namunalari bilan izohlanadi.

Har bir xalqning boyligi, avvalo, uning tili, madaniyati hamda urf-odatlar bilan belgilanadi. Milliy tilning rivojlanishida esa, shaksiz, adabiyot ixlosmandlarining o'rni beqiyos. Tilning lug'at boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, o'sha tilning umri ham shunchalar uzun bo'ladi, insonlar so'zlarning muqobili uchun boshqa tillarga murojaat qilishmaydi.

Tildagi so'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanishi jumlar go'zalligini ta'minlaydi. Shu sababli shoir va yozuvchilar o'z ijod namunalari ko'chma ma'nodagi so'zlardan unumli foydalanishadi. Jumladan, shoira Zulfiya ijodida ham ko'chma ma'noning, xususan, metonimiyaning go'zal namunalari uchraydi.

Metonimiya yunoncha "metonymia" – qayta nomlash demakdir. Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chishi metonimiya hisoblanadi (1:196). Metonimiyada biror predmet xususiyati yoki voqea-hodisaning nomini aytganda shunga o'zaro bog'liq bo'lgan ikkinchisi anglashiladi. Bunda o'xshashlik nazarda tutilmaydi. Boshqacha aytganda, ikkita bir-biriga bog'liq predmet, belgi, holatning birining nomi tejamkorlik natijasida tushiriladi (2:69). Masalan Zulfiyaning "Sog'inib" she'ridagi

Yaxshiyamki, qalamga yorman,
So'zlab turar bor dilimni ul...(3:78)

misralarida qalam so'zi metonimiyaga misol bo'ladi. Bilamizki, ijod ahlining asosiy yozish vositasi qalam va she'rdagi bu so'z o'z ma'nosida emas, qalam orqali yozilgan she'riyatni bildiradi. Demak, misrada she'riyat, ijod namunalari "qalam" so'zi bilan qayta nomlangan va ular orasidagi aloqadorlik o'quvchida buni tushinishda qiyinchilik tug'dirmaydi.

Ma'no ko'chishi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida metonimiya quyidagi yo'llar bilan hosil qilinishi aniqlangan:

1) Vaqtga ko'ra: o'nga (yosh) kirdim, yarim yillik (imtihon) topshirildi kabi (2:70).
Shoira ijodida ham bu ko'rinishdagi metonimiya aks etgan:

Men ishq edim,
Ishqdan mastdim bearmon,
O'ttizga yetmay bir zarbdan uyg'ondim... (3:39)

Ushbu misralarda "o'ttizga yetmay" birikmasida "o'ttiz yosh" nazarda tutilgan, she'rni o'qiyotgan inson ham so'zlarning o'zaro aloqasi orqali anglashilayotgan ma'noni tushunib oladi. Yoki shunga o'xshash:

– Agar o'n sakkizga qaytsam, mabodo
Shu Sakson darada qolib ketardim... (3:198)

misralarida ham shu turdagi metonimiya qo'llangan. Ya'ni shoira o'n sakkiz yoshli davriga qaytganida Sakson darada qolishini nazarda tutyapti. Ko'rinib turibdiki, "yoshlik davr" so'zlari tejalgan.

2) O'ringa munosabatiga ko'ra: bir stakan (suv) ichdim, bir tarelka (ovqat) yedim, qishloq (-dagi odamlar) uyquda kabi (2:70). Shoira Zulfiya o'z lirikasida bu turdagi metonimiyadan ham unumli foydalangan. Uning

Qo'shnimiz uyiga tushmakda kelin,
Hovli-yu ko'chani zabt etgan karnay... (3:34)

misralarida "hovli-yu ko'chani zabt etgan karnay" jumlasini orqali hovlilar va ko'chalardagi insonlar nazarda tutilgan. Yoki

Horib, charchab, sayrga chiqsa Buxoro
Oq nurlar to'shadi ming-ming chirog'dan... (3:192)

misralarida Buxoro so'zi o'rin-joy oti ma'nosi uchun emas, shaxs oti – shu joyda istiqomat qiluvchi odamlar ma'nosini bildirish vazifasini bajaryapti.

3) Muallif va asar o'rtasidagi munosabatga ko'ra: Pushkinni (asar) o'qidim (2:70). Shoira ijodini tahlil qilsak, bu turdagi metonimiyalarga ham ko'zimiz tushadi. Jumladan,

Menga Navoiydan aytgin alla deb,
Lutfiydan ongimga ziyo taratding,
Qiyналgan olamga bo'lgин dalda deb,
Asli o'zing meni shoir yaratding... (3:5)

misralarida "Navoiydan aytgin alla", "Lutfiydan ziyo taratding" metonimiyalari qo'llangan. Navoiy, Lutfiy va ularning asarlari bir-biriga bog'liq bo'lib, so'z tejash uchun asarlari, baytlari yoki she'rlari so'zlari tushirilgan bo'lishi mumkin. Natijada Navoiy, Lutfiy so'zlari shaxs ma'nosini emas, asarlar ma'nosini ifodalash vazifasini bajaryapti. Yoki

Sizni Zebuniso dardidan voqif,
Nodirabegimga etay oshno!.. (3:212)

misralarida ham "Nodirabegimga etay oshno" jumlasini Nodirabegim ijodiga oshno etishni bildirgan, shaxs nomi shu shaxsning ijodini anglatgan va bu orqali fikr lo'nda, ifodali va ta'sirchan chiqishi ta'minlangan.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, shoira Zulfiya ijodida metonimiya ma'no ko'chishining barcha turlari uchraydi va bu ijodkorning tilimizdagi so'zlardan o'ziga xos mahorat bilan foydalanganining dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent – "ILM ZIYO" –

2013.

2. B. Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma.- Toshkent Akademnashr.

2011.

3. Zulfiya. Saylanma. Toshkent – 2016



INNOVATIVE
ACADEMY